

MA'NAViy-AXLOQiy QADRIYATLAR IFODASIDA "URUSH ODAMI" TABIATINING AKS ETISHI (ERIX MARIA REMARK VA QO'CHQOR NORQOBIL ASARLARI MISOLIDA)

Kodirov Axror Baxodir o'g'li

ToshDO'TAU Jismoniy va yuridik shaxslar bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi
boshlig'i, mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20727000>

Annotatsiya: Mazkur tezisda Erix Maria Remark va Qo'chqor Norqobil asarlarida "urush odami" obrazining badiiy talqini hamda unda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Adiblar asarlaridagi urush qatnashchilarining ruhiy kechinmalari, insoniy fazilatlari, vijdon, sadoqat, do'stlik va insonparvarlik kabi qadriyatlarining badiiy aks etishi qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Shuningdek, urushning inson ruhiyatiga ko'rsatgan ta'siri va qahramonlarning ma'naviy olamidagi o'zgarishlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: *urush odami, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, psixologizm, Erix Maria Remark, Qo'chqor Norqobil, badiiy konflikt, insonparvarlik, qahramon obrazi.*

Аннотация: В данной статье исследуется художественная интерпретация образа «человека войны» в произведениях Эриха Марии Ремарка и Қо'чқор Норқобила, а также особенности выражения нравственно-этических ценностей. В рамках сравнительного анализа рассматриваются внутренние переживания участников войны, их духовные конфликты, человеческие качества и влияние войны на формирование личности. Особое внимание уделяется художественному отражению таких ценностей, как совесть, верность, дружба, гуманизм и патриотизм в характерах героев. В результате исследования обосновывается, что образ «человека войны» в творчестве обоих писателей является важным художественным средством раскрытия трагической сущности войны и утверждения идей гуманизма.

Ключевые слова: *человек войны, нравственно-этические ценности, психологизм, Эрих Мария Ремарк, Қо'чқор Норқобил, художественный конфликт, гуманизм, патриотизм, образ героя, сравнительный анализ.*

Abstract: This article examines the artistic interpretation of the "man of war" image in the works of Erich Maria Remarque and Qo'chqor Norqobil, as well as the representation of moral and ethical values. The study conducts a comparative analysis of the soldiers' inner experiences, psychological conflicts, human qualities, and the impact of war on personality formation. Special attention is given to the artistic expression of values such as conscience, loyalty, friendship, humanism, and patriotism in the characters' portrayals. The research concludes that the "man of war" image in the works of both writers serves as an important artistic tool for revealing the tragic essence of war and promoting humanistic ideas.

Keywords: *man of war, moral and ethical values, psychologism, Erich Maria Remarque, Qo'chqor Norqobil, artistic conflict, humanism, patriotism, character image, comparative analysis.*

Kirish. Urush mavzusi jahon va o'zbek adabiyotining eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Insoniyat tarixida yuz bergan urushlar millionlab insonlarning taqdiriga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, adabiyotda ham bu jarayon o'zining badiiy ifodasini topgan. Ayniqsa, urush

qatnashchisining ruhiy dunyosi, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi va urush sharoitida insoniylikni saqlab qolish masalasi ko'plab yozuvchilar ijodida markaziy o'rin egallaydi.

Nemis adibi Erix Maria Remark va o'zbek yozuvchisi Qo'chqor Norqobil asarlarida urush mavzusi turli tarixiy va ijtimoiy sharoitlarda tasvirlangan bo'lsa-da, ularni birlashtirib turadigan muhim jihat inson taqdiriga bo'lgan e'tibordir. Har ikki adib urushni ulug'lashdan ko'ra, uning inson hayotiga olib kelgan fojealarini ko'rsatishga intiladi.

“Urush odami” obrazining badiiy mohiyati

Adabiyotshunoslikda obraz badiiy tafakkurning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. “Urush odami” obrazi esa urush voqealarining markazida turuvchi, uning dahshatlarini o'z boshidan kechirgan inson timsolidir. Bu obraz orqali yozuvchi urushning nafaqat tashqi, balki ichki – ruhiy oqibatlarini ham tasvirlaydi.

Urush odamining eng muhim xususiyati shundaki, u hayot va o'lim oralig'ida yashaydi. Bunday vaziyatda insonning asl qiyofasi, uning ma'naviy dunyosi va axloqiy qarashlari namoyon bo'ladi. Shu sababli mazkur obraz badiiy adabiyotda murakkab psixologik tasvir imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Remark ijodida urush odami obrazi Birinchi jahon urushi voqealari bilan bog'liq holda tasvirlanadi. “G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” romanining bosh qahramoni Paul Boymer urushning barcha dahshatlarini boshidan kechiradi. Asarda urush insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy olamiga ham zarba beruvchi kuch sifatida tasvirlanadi.

Paul Boymer va uning safdoshlari uchun do'stlik eng muhim qadriyatga aylanadi. Front sharoitida insonni tirik tutib turgan asosiy kuch aynan o'zaro ishonch va sadoqatdir. Qahramonlarning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati urushning shafqatsiz muhitiga qarama-qarshi qo'yiladi.

“Qaytish” romanida esa urushdan qaytgan askarlarning ma'naviy fojeasi tasvirlanadi. Ular tinch hayotga moslasha olmaydi, chunki urush ularning dunyoqarashini o'zgartirib yuborgan bo'ladi. Bu holat insonning ruhiy iztiroblarini va ma'naviy bo'shliqqa tushib qolishini ko'rsatadi. Remark nazarida insoniylik urushga qarshi turuvchi eng katta ma'naviy kuchdir. Yozuvchi qahramonlari urushning qurboni bo'lsalar ham, insoniy fazilatlarini saqlab qolishga harakat qiladilar.

Qo'chqor Norqobil asarlarida urush mavzusi o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va insoniy fazilatlarini bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Yozuvchi qahramonlari urushning bevosita qatnashchilari yoki uning oqibatlarini boshidan kechirgan insonlar sifatida tasvirlanadi. Adib qahramonlari uchun vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat va insoniylik eng muhim qadriyatlar hisoblanadi. Urushning og'ir sinovlari ularning xarakterini toblaydi, ma'naviy jihatdan chiniqtiradi.

Yozuvchi asarlarida urush tufayli ajralgan oilalar, yetim qolgan bolalar, frontdan qaytmagan insonlar taqdiri orqali urushning fojeaviy oqibatlari ochib beriladi. Shu bilan birga, xalqning matonati va bardoshi ham alohida ta'kidlanadi. Q. Norqobil yaratgan qahramonlar Remark qahramonlaridan farqli ravishda milliy ruh va an'analar bilan chambarchas bog'langan. Ularning ma'naviy olami o'zbekona qadriyatlar asosida shakllanadi.

Remark va Norqobil asarlaridagi urush odami obrazlari o'rtasida bir qator umumiy va farqli jihatlar mavjud.

Birinchiidan, har ikki adib urushni insoniyat uchun fojea sifatida tasvirlaydi. Ularning qahramonlari urush tufayli jismoniy va ruhiy azoblarni boshdan kechiradilar.

Ikkinchidan, har ikkala yozuvchi asarlarida insonparvarlik g'oyasi yetakchi o'rin egallaydi. Do'stlik, sadoqat, mehr-muhabbat va vijdon qahramonlarning asosiy fazilatlarini sifatida namoyon bo'ladi.

Farqli jihat shundaki, Remark asarlarida urushning psixologik oqibatlarini chuqurroq tahlil qilindi. Qahramonlarning ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblari markaziy o'ringa chiqadi. Norqobil asarlarida esa milliy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar va xalqning ma'naviy kuchi ko'proq yoritiladi.

Remark urush odamining ichki dunyosiga urg'u bersa, Norqobil urushning jamiyat va oilaga ko'rsatgan ta'sirini kengroq tasvirlaydi.

Har ikki adib ijodida urush odami obrazi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Urush insonni og'ir sinovlarga duchor qilsa-da, uning qalbidagi ezgulik tuyg'ularini butunlay yo'q qila olmaydi.

Remark qahramonlari do'stlik va insoniylik orqali urushga qarshi turadilar. Norqobil qahramonlari esa oilaviy qadriyatlar, sabr-toqat va vatanparvarlik orqali ma'naviy barkamollikka erishadilar.

Urush odamining tabiati aynan mana shu qadriyatlar orqali namoyon bo'ladi. Qahramonlar murakkab vaziyatlarda ham o'z vijdonlariga sodiq qolishga harakat qiladilar. Shu jihatdan ular nafaqat urush qurbonlari, balki ma'naviy g'alaba sohiblari sifatida ham talqin qilinadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Erich Maria Remark va Qo'chqor Norqobil asarlarida urush odami obrazi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yoritishda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Har ikki adib urushning fojeaviy mohiyatini inson taqdiri orqali ochib beradi. Remark asarlarida urush odamining psixologik dunyosi va ichki ziddiyatlari ustuvor bo'lsa, Norqobil ijodida milliy qadriyatlar va oilaviy munosabatlar muhim o'rin egallaydi. Biroq har ikki yozuvchi ijodini birlashtirib turuvchi asosiy g'oya – insonparvarlik va tinchlik g'oyasidir. Shu bois urush odami obrazi adabiyotda nafaqat tarixiy voqealarning ishtirokchisi, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ifodachisi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Blume M. Erich Maria Remarque im Interview. Osnabrück, 2024.
2. Christoffersen R. Narrative Strategies in the Novels of Erich Maria Remarque. University of Stirling, 2006.
3. Encyclopedia of Modern European Literature. London, 2018.
4. Fıncioğlu S. Erich Maria Remarque and Realism. Karadeniz Journal, 2016.
5. Murdoch B. The Novels of Erich Maria Remarque: Sparks of Life. Boydell & Brewer, 2006.
6. Remarque E.M. All Quiet on the Western Front. Boston, 1929.
7. Remarque E.M. The Road Back. Boston, 1931.
8. Remarque E.M. Three Comrades. London, 1936.
9. Schneider T.F. The Truth about the War Finally: Critics' Expectations of War Literature During the Weimar Republic. Journalism Studies, 2016.
10. XX asr jahon adabiyoti tarixi. Toshkent, 2021.